

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**FIZIKA-MATEMATIKA FAKULTETI**

**KASB TA'LIMI KAFEDRASI**

**304-GURUH TALABASI**

**Ziyatova Nilufarning**

Korxonalarda xizmat ko'rsatish jarayonlarini loyihalash fanidan

**“Loyihalash jarayonlarini aniqlaydigan faktorlar”**

mavzusida yozgan

**R A F E R A T I**

**Namangan – 2015**

## **Reja:**

1. Tikuv korxonasida bajariladigan ishlar va ularning bosqichlari.
2. Buyumlarni ishlab chiqarishga texnik tayyorlash.
3. Gazlamalarni bichishga tayyorlash texnologik jarayoni.

Kiyim turlari doimo va uzluksiz yangilanib turadi. Har yili yengil sanoatda bichig' i va fasoni xilma-xil bo'lgan yangi modellar ishlab chiqarishga joriy qilinadi. Kiyimning asosiy boshlang'ich materiali bo'lgan gazlamalar faqat struktura, tashqi ko'rinish va rang-baranglik jihatidagina emas, balki xususiyat va tola jihatidan ham to'xtovsiz o'zgarib turadi.

Kiyim ishlab chiqarish bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Model yaratish va konstruksiyasini tuzish (tikuv korxonasi sining tajriba sexida amalga oshiriladi).
2. Gazlamalarni bichishga tayyorlash (tayyorlov sexida amalga oshiriladi)
3. Gazlamalarni bichish (bichish sexida bajariladi).
4. Buyum tikish (tikuv sexida tikiladi).
5. Buyumni pardoqlash (pardoqlash yoki tikuv sexida bajariladi).

Ishlab chiqarishni tashkiliy-texnik jihatdan tayyorlashning dastlabki bosqichi kiyimlar modelini yaratish hisoblanadi. Model — tayyorlanadigan kiyimning fasoni hamda shakl namunasidir.

Kiyimning yangi modeli modalar uyida hamda malakali rassom-modelchi yoki modeler-konstruktorlarga ega bo'lgan tikuvchilik korxonalarida yaratiladi.

Model yaratish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat: gazlama ustida ishlash va model eskizini ishlab chiqish; gazlama va qo'shimcha bezak materiallarni tanlash; model eskizini korxonasi bosh muhandisi boshchiligidagi muhandis-texnik xodimlardan iborat badiiy-texnik kengashda tasdiqlash; eskiz bo'yicha buyumni rassom-modelchi va texnologik laborantlar hamkorligida mulyaj uslubi bilan bichish va tikish; yangi modeldagi kiyimni badiiy-texnik kengashda ko'rib chiqish va katta badiiy-texnik kengashga tavsiya etish. Katta badiiy-texnik kengash tarkibiga tikuvchilik sanoati, modalar uyi va savdo tashkilotlari xodimlari kiradi. Katta badiiy-texnik kengashdan o'tgan modellar ommaviy ishlab chiqarishga tavsiya etiladi. Modellarini ishlab chiqarishni texnik tayyorlash tikuvchilik korxonasining tajriba sexida amalga oshiriladi.

Tajriba sexi ishlab chiqarishning asosiy sexlaridan biri boʻlib, bu yerda quyidagi ishlar bajariladi:

1. Model yaratish va konstruksiyasini tuzish.
2. Model namunalarini tikish.
3. Andazalar tayyorlash.
4. Buyumga gazlama sarf normalarini aniqlash.
5. Gazlamalarning fizik-mexanik xususiyatlarini aniqlash laboratoriyasi.

Yangi modeldagi buyumning konstruksiyasini konstruktor tuzib chiqadi va konstruksiyani tekshirish maqsadida namuna tikiladi. Namuna tikish jarayonida konstruksiyaga oʻzgartirishlar kiritib boriladi. Oʻzgartirish kiritilgan konstruksiya boʻyicha yana ikkinchi namuna tikiladi va ushbu jarayonda konstruksiya boʻyicha etalon-andaza tasdiqlanadi. Etalon- andaza oʻrtacha oʻlcham-boʻyga yaratilganligi uchun texnik-konstruktor ushbu model tavsiya etilgan boshqa oʻlcham-boʻylarga koʻpaytiradi. Agar model modalar uyida yaratilgan boʻlsa, unda tikuv korxonaning tajriba sexiga modelning namunasi, tavsiya etilgan hamma oʻlcham- boʻydagi andazalar hamda modelning texnik hujjati keltiriladi. Bunda konstruktor namuna va andazalarni texnik hujjatga solishtiradi. Andazalar qanchalik toʻgʻri qilinganligini aniqlash maqsadida model namunasi tikiladi. Tajriba sexi konstruktorlari etalon-andaza qanchalik toʻgʻri qilinganligini aniqlab chiqib, shu sexdagi andaza tayyorlash guruhiga beradi. U yerda uch xil andaza tayyorlanadi:

- a) ishchi andazalar — detallarni bichish, boʻrlamalar tayyorlash uchun ishlatiladi;
- b) yordamchi andazalar — vitachka, choʻntak, tugma, izma joylari va h.k. ni belgilash uchun ishlatiladi;
- d) qoʻshimcha andazalar — kiyim detallarini tekislab qirqish uchun ishlatiladi.

Ishchi andazalar 5 ta komplektda tayyorlanadi. Ulardan ikkitasi tajriba sexida gazlama sarflash normasini aniqlash uchun, bittasi tayyorlov sexida boʻrlama tayyorlash uchun, ikkitasi bichish sexiga nuqsonli gazlamalarni bichish va boʻrlamalarda, oʻchib ketgan joylarini boʻrlash uchun ishlatiladi. Andazalar 0,9—1,2 mmli qattiq kartondan tayyorlanadi. Qoʻshimcha andazalar qirqimiga tunuka-

mag'iz qoplanadi. Ko'p ishlatiladigan andazalar duralumin yoki boshqa metall tunukalardan tayyorlanishi mumkin. Andazalar igna o'rniga pichoq o'rnatilgan universal tikuv mashinasida

yoki andaza qirqadigan maxsus MRL mashinasida qirqiladi. Andazalar tekshiriladi va ularning cheti aylantirib tamg'alab chiqiladi. Har qaysi andazada tanda ip yo'nalishi va undan qanchalik chetga chiqish mumkinligi ko'rsatiladi. Detallar chegarasi bir-biriga to'g'ri ulanishi uchun andazalarga kertimlar qo'yiladi. Hamma andazalarga model raqami, o'lchami, bo'yi yoziladi. Andazalar komplektining asosiy detalida shu

komplektga kiradigan andazalar ro'yxati yoziladi. Ishchi va yordamchi andazalar oyda bir yoki ikki marta etalon andaza bilan solishtirib tekshiriladi. Etalon andazalar ham kvartalda bir marta tavsiyada ko'rsatilgan o'lchamlarga solishtirib tekshiriladi Normalovchi guruhning vazifasi materiallar harajatini ratsional normallashtirishdan iboratdir, chunki tikuv kiyimlarining tannarxini kamaytirish tadbirlari ichida materiallar harajatini kamaytirish birinchi darajali ahamiyatga egadir. Material mahsulot tannarxining 80—90 foizini tashkil qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tariladigan yil bo'ldi O'zbekiston Respublikasi I.A.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonning ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi, 2012 yil 20 yanvar, № 14 (5434).
2. Karimov I.A. Mamlakatimizda demoraktik isloxlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi- T.: O'zbekiston, 2010.
3. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat engilmas kuch"-T.:2009 yil.

4. Karimov I.A. “Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo‘llari va choralari”-T.: 2009 yil.
5. «Ta‘lim to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Toshkent, 1992-yil.
6. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Toshkent, 1997-yil.
7. X.H.Komilova, N.K.Hamroyeva. Tikuv buyumlarini konstruksiyalash. Toshkent,
8. [www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)